

"HUJUM" HARAKATI VA UNING MARKAZIY OSIYO AYOLLARI HAYOTIGA TA'SIRI

Tursunmurodova Marjona Abduvali qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1920–30-yillarda O‘zbekiston SSRda Sovet hukumati tomonidan olib borilgan “Hujum harakati” – ya’ni ayollarni paranji va chimgandan chiqarish siyosati tarixiy tahlil qilinadi. Maqolada hujum kampaniyasining bosqichlari, asosiy ishtirokchilari, amalga oshirilish usullari, jamiyatdagi qarshiliklar va ijtimoiy-madaniy oqibatlar o‘rganiladi. Bu kampaniyaning ayollar huquqlari va milliy qadriyatlar to‘qnashuvi nuqtai nazaridan murakkab va ziddiyatli hodisa ekani asoslanadi. Tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida, ushbu harakatning O‘zbekiston tarixidagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar:

Hujum harakati, paranji, chimgan, Sovet modernizatsiyasi, ayollar ozodligi, Zhenotdel, gender siyosati, O‘zbekiston SSR, diniy qadriyatlar, ijtimoiy ziddiyatlar.

Аннотация:

В данной статье рассматривается кампания "Худжум", проводившаяся в Узбекской ССР в 1920–1930-х годах с целью снятия паранджи и чимгана с мусульманских женщин. Анализируются причины и этапы кампании, роль коммунистических женских организаций, формы насильственного внедрения политики, а также реакция местного населения и культурные последствия. Особое внимание уделяется столкновению между советской модернизацией и традиционными исламскими ценностями. Исследование основано на архивных источниках и современных научных трудах.

Ключевые слова:

Худжум, паранджа, чимган, советская модернизация, женская эмансипация, Узбекская ССР, женотдел, религиозные традиции, социальный конфликт.

Annotation

This article examines the “Hujum” campaign carried out in the Uzbek SSR during the 1920s–1930s, aimed at unveiling Muslim women by removing the paranji and chimgan. It analyzes the origins, stages, and implementation methods of the campaign, the involvement of communist women’s organizations (Zhenotdel), and the strong backlash from traditional society. The article discusses how the campaign represents a conflict between Soviet modernization efforts and deeply rooted religious and cultural values. The analysis draws on archival documents and modern historical research.

Keywords:

Hujum, paranji, chimgan, Soviet modernization, women’s emancipation, Uzbek SSR, Zhenotdel, religious traditions, social conflict.

Kirish :

XX asr boshlarida O‘zbekiston hududida tub ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar yuz berdi. 1920-yillarda Sovet hukumati musulmon mintaqalarda, xususan, O‘zbekistonda ayollarni diniy va milliy an‘anaviy kiyim — paranji (yuzni to‘suvi qora libos) va chimgan (qalin pardali bosh kiyim)dan ozod qilish bo‘yicha “Hujum” deb nomlangan kampaniyani boshlab yubordi. Ushbu siyosat ayollarni jamoat hayotiga jalb qilish, ularning ijtimoiy tengligini ta‘minlash kabi rasmiy maqsadlar bilan oqlangan bo‘lsa-da, amalda bu harakat kuchli ijtimoiy qarshilik, zo‘ravonlik va madaniy to‘qnashuvlar bilan kechdi. Maqolada ushbu kampaniyaning sabablari, bosqichlari, oqibatlari va tarixiy ahamiyati haqida ma‘lumot beriladi.

1926 - yilning sentyabr oyida O‘rta Osiyo partiya komitetlarining xotin-qizlar bo‘limlari xodimlari ishtirokida kengash o‘tkazildi va bu yerda xotin-qizlar orasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish va uni majburiy ravishda o‘tkazishga qaror qilindi.¹ Bu majburiy tadbir “Hujum” deb ataldi, ya‘ni hujum uslubida ayollar muammosini hal qilish siyosati ustun o‘l boshladi. Bu kompaniyani o‘tkazish uchun 1926 - yil dekabr oyida O‘rta Osiyo respublikalari va xususan O‘zbekistonda maxsus komissiyalar tuzildi. “Hujum” kompaniyasi 2 bosqichda olib borildi: birinchisi 1926- yil

¹ Aminova R.X. "Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане" Т. 1975 С. 38.

sentyabrdan 1927 - yil fevralgacha " tayyorgarlik davri" ; ikkinchisi- 1927 -yil mart oyidan 1932 -yilgacha " zarbdorlik davri"deb ataldi.Bu harakat dastlab o'z faoliyatini mo'tadillik bilan olib bordi. Ayollar o'rtasida o'tkazilgan tashviqotlar "sovetlashtirish"deb qaraldi. "Hujum" harakati ayollarni ishlab chiqarishga jalb qilish,ularning jamiyatda teng huquqli bo'lishi uchun kurash sifatida o'z namoyishlarini boshladi. Aslida harakatdan ko'zlangan 2ta maqsad bor edi .Birinchidan,iqtisodiy maqsadda ya'ni ayollarni ishlab chiqarishga jalb qilish orqali sovet jamiyati uchun zarur bo'lgan ishchi kuchi muammosini hal qilish.Ikkinchidan,ma'daniy maqsadda ,O'zbek xalqining ming yillar davomida saqlanib kelayotgan diniy va ma'naviy boyligini yo'q qilish ,milliy urf-odat ,an'analarimizning tub ildiziga bolta urishni ko'zlagan edi. Bu maqsadiga ma'lum ma'noda erishdi ham. 1927-yil 8-martda Bolsheviklar Butunittifoq Kommunistik partiyasi MK O'rta Osiyo byurosining birinchi kotibi I.Zelenskiy boshchiligi bilan Samarqandning Registon maydonida minglab o'zbek ayollari ro'mollarini yechdilar, ularni to'plab, keyin olovda yoqib yubordilar. Shu kuni 10 ming ayol paranjisini tashlagan.Bu harakat butun Markaziy osiyo bo'ylab keng yoyilib 250 ming ayollar o'z paranjilarini tashlashgan.Tojikistonda bu harakatga Jahon Obidova boshchilik qildi va bu harakat uning nomi bilan ataldi.²

Bu harakat keskin tarzda olib borildi va oqibatda minglab ayollarning o'limiga sabab bo'ldi.Erkaklar va diniy ulamolar o'rtasida paranji tashlagan ayollarni tahqirlash va o'ldirish avj oldi. Ayollar osib o'ldirildi,xatto Toshkentdagi Baroqxon madrasasi minorasidan ayollarnu qoplarga solib pastga tashlash holati kuzatildi. Harakat aholining qattiq qarshiligiga duch keldi. 1927-1928 yillarda birgina O'zbekistonda ayollar bo'limi a'zolari, klub va kutubxona mudirlari orasidan 2500 dan ortiq ayollar o'ldirilgan. Qirg'izistonda 22 yoshli faol Alimkan Mamitqulova ayollar yig'ilishlarida qatnashgan va savodsizlikni tugatish maktabida tahsil olgan. Uning eri bundan juda norozi bo'lib, uni muntazam ravishda kaltaklagan va nihoyat suddagi ajrashish jarayonida uni xanjar bilan o'ldirgan. Qishloq Fuqarolar Yig'ini deputati Aynabyubuy

² „Hujum“ O'zbekiston ayollari taqdirida: Ayollar teng huquqlilik harakatining 60 yilligi munosabati bilan / Raxima Hadiyeva Aminova. — Toshkent: O'zbekiston SSR „Bilim“ jamiyati, 1987. — 22 b.

Jalga'boyeva „Qizil uy“ga (madaniy-ma'rifiy muassasa) rahbarlik qilgan, o'quv dasturida qatnashgan, Qo'chqor viloyatining Qizil-Tuu qishlog'ida xotin-qizlar o'rtasidagi ishlarda faol ishtirok etgan. Bundan uning qarindoshlari juda norozi bo'lgan, eri uni qattiq kaltaklagan. Aynabyubyu bu haqda devoriy gazetada yozgan va ota-onasi uyiga ko'chib borib, o'qish va ishlashni davom ettirgan. Shundan so'ng eri yashirin holatda borib, unga 14 marta pichoq bilan jarohat yetkazgan. "Xujum" ning birinchi bosqichidayoq, ya'ni 1926 - 1927 yil mayigacha mingga yaqin xotin-qizlar o'z paranjilarini tashlaganlar. 1927-yil yozida 120 ga yaqin savodsizlikni tugatish maktabida 5 mingga xotin-qiz o'qidi. 200 ta oilaviy to'garaklar faoliyat ko'rsatdi. Xalq maslahatchilarining qayta saylovi 5 ming nafar xotin-qizning saylanishi bilan yakunlandi. Bu esa umumiy xalq saylovchilarining 24,8 % ni tashkil etdi. Umuman , saylov jarayonida 50 mingga yaqin xotin-qiz ishtirok etgan bo'lsada, atigi 1,5 ming nafari sovetlar tarkibiga saylangan edi.³

Xo'sh, "Hujum" harakati o'zbek xotin qizlariga Nima berdi. Birinchidan, ularga O'zbek xotin qizlari degan nom berdi. Ular shu nom bilan inson sanaldi. Ular ana shu nom bilan ijtimoiy-siyosiy kuch bo'ldi. Ana shu nom bilan madaniy-ma'naviy qudrat kasb etdi. Ikkinchidan, ularni parangi va chimmatlarini tashlattirdi. O'zbek xotin qizlari endi prezidium va minbarlarni zabt etdi. Endi u o'ziga qaysidir boyning 15-xotini emas. Inson sifatida qaray boshladi. Birgina misol Jahon Obidova. U o'zining qora o'tmishidan "hujum" harakati sabab qutuldi. Uchinchidan, O'zbek xotin qizlari ilmi bo'ldi. Madrasa, eski rus-tuzem maktablarida deyarli o'g'il bolalar ta'lim olardi. "Hujum" harakati o'zbek xotin qizlarini savodli qildi. O'qish xotin qizlar uchun gunoh sifatida qaralardi. "Hujum" harakati o'sha gunohni bekor qildi. To'rtinchidan, "Hujum" harakati o'zbek xotin qizlarini huquqli qildi. Endi nikoh tizimi qattiy lashdi. "Hujum" harakati o'zbek xotin qizlarini zagsli qildi. Beshinchidan, O'zbek xotin qizlarini erkaklar bilan teng huquqli etdi. Ammo bu siyosat qosh qo'yaman deb ko'z chiqarish bo'ldi. Ayol bilan erkakni farqlab bo'lmay qoldi. Nafislik , Iboga burkangan sharq ayoli buldozerchi bo'ldi, traktor haydadi. Bu katta qiyinchiliklar tug'dirdi. Hujum

³ Jo'rayeva. N.D , " Ozbekiston ijtimoiy -iqtisodiy va madaniy hayotida Xotin-qizlarning o'rni " Toshkent 2004 , 46- bet

harakati amalga oshirilishi kerak edi. Lekin bu darajada keskin va shafqatsiz tarzda emas. Sovet tuzumi o'z iqtisodiy maqsadini amalga oshirish maqsadida Sharq ayolining iffati bo'lmish ro'moliga osildi. Bu o'ylanmasdan olib borilgan siyosat sabab minglab ayollar o'z yaqinlari tomonidan qurbon qilindi. Bu harakat olib borilishida bir qancha hatolarga yo'l qo'yilgani sabab oqibatlarini oqlab bo'lmas ko'rguliklarni keltirib chiqardi. Tarixda zo'ravonlarcha qilingan siyosat nomini oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Aminova R.X . "Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане" Т . 1975
С
2. „Hujum“ O‘zbekiston ayollari taqdirida: Ayollar teng huquqlilik harakatining 60 yilligi munosabati bilan / Raxima Hadievna Aminova. — Toshkent: O‘zbekiston SSR „Bilim“ jamiyati, 1987. — 22 b.
3. Jo'rayeva. N.D , " Ozbekiston ijtimoiy -iqtisodiy va madaniy hayotida Xotin-qizlarning o'rni " Toshkent 2004 , 46- bet